

Said Ahmadning Kulgi Yaratish Mahorati

Jumaniyozova Feruza

Qarshi davlat universiteti

Filologiya fakulteti 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Ravshanova Gulruxbegim

Qarshi davlat universiteti

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqola o'tkir hajv ustasi Said Ahmadning "Kelinlar qo'zg'oloni" va bir qancha hajviy asarlaridagi kulgini hosil qilgan vositalarni va ularning tasnifi tahlil etilgan. Yumor yaratuvchi vositalar orqali komik xarakter yaratish mahorati misollar asosida tahlil doirasiga tortilgan. Xususan, Said Ahmad kulgi yaratishda maqol, matal, frazeologizm, antroponimlar, toponimlar, laqablarni mahorat bilan qo'llaydi. Yozuvchi asarlarida mazmun jihatdan xilma-xil maqollar uchraydi. Maqollar obrazlarni, xarakterlarni yorqinroq ochish, ularga satirik yoki yumoristik bo'yoq berish, kishilarning voqea-hodisalarga munosabatini ifodalash, asar g'oyasini, tilini boyitish kabi maqsadlarda ishlatiladi.

Kalit so'zlar: xalq og'zaki ijodi, maqol, antroponimlar, frazeologizm, laqablar, toponimlar, gresok, ko'p ma'noli so'zlar va iboralar

Kulgi asar tilini yumor tiliga aylantirib, lirizm bilan omuxta bir ohang, o'ziga xoslik bag'ishlaydi. O'zbek komediyalarida antroponimlar, laqablar, toponimlar, ko'p ma'noli so'z va iboralar, okkozional frazemalar, mubolag'alardan foydalanish, personajlar nutqida har xil qo'pol so'zlarni ishlatish, asardagi narsabuyum otlariga boshqacha nom berish, boshqa tildan so'z olish va chet so'zlarni o'zbek tiliga moslashtirish kabilar kulgi uyg'otish vositasiga aylangan. Said Ahmadning "Kelinlar qo'zg'oloni" komediyasidagi yumor yaratuvchi vositalarni quyidagicha tasnif etish maqsadga muvofiq:

- 1) ko'p ma'noli so'z va iboralar hamda okkazonal frazemalar vositasida kulgi hosil qilish;
- 2) har xil dag'al so'zlarni ishlatish orqali kulgi hosil qilish;
- 3) antroponimlar (nomlar va laqablar) orqali kulgi hosil qilish;
- 4) toponimlar orqali kulgi hosil qilish;
- 5) boshqa tildan so'z olish, chet so'zlarni o'z tiliga moslashtirish orqali kulgi hosil qilish;
- 6) turli kasb egalari nutqiga oid so'zlarni keltirish orqali kulgi hosil qilish;
- 7) asardagi narsa-buyum nomlarini boshqacha ta'tiflash orqali kulgi hosil qilish;
- 8) mubolag'adan foydalanish orqali kulgi hosil qilish.

O'zbek komediyalarida muvaqqat ma'no, ya'ni so'zning ma'no tuzilishida shakllanib yetmagan, ma'lum individual qo'llanishda yuzaga chiqadigan okkozional ma'noga ega bo'lgan so'zlar, ko'p ma'noli so'zlar va iboralar kulgi hosil qilishda eng asosiy usul hisoblanadi. Yozuvchi Said Ahmad ba'zan qahramonlar nutqi tarkibida shunday so'zlarni qo'llaydiki, ular qo'pol va adabiy tilda unchalik qo'llanilmasa-da, badiiy matnda doimo yumoristik ohangni, yumoristik muvozanatni saqlab turish uchun xizmat qiladi.

Komiklikning turli ko'rinishlarida komiklikni yuzaga chiqish yo'sini bir xil bo'lmaydi. Masalan, satira va yumorda subyekt munosabati ko'proq obyektidagi ziddiyatni bo'rttirib ko'rsatish orqali namoyon bo'lsa, kinoya va sarkazmda obyektidagi ziddiyat, asosan, muallif munosabati orqali yuzaga chiqariladi. Shuning uchun ham sarkazm va kinoya obyektida nomuvofiqlik yaqqol ko'zga tashlanmaydi, ular ko'p jihatdan kontekst bilan bog'liq bo'ladi. Komik munosabat obyekti o'zida idealga tamoman zid illatlarni yoki ulardan ayrimlarini namoyon etadiki, shu jihatdan satira va yumor ko'rinishlari farqlanadi. Satira obyektida idealga mutlaqo zid, jamiyatning joriy holati nuqtayi nazaridan to'la inkor qilinuvchi ziddiyatlarni aks ettirsa, yumorda obyektidagi ayrim jihatlarnigina inkor qilish ko'zda tutiladi. "Kelinlar qo'zg'oloni"dagi yumorda kishilar, voqea-hodisalar ustidan yengil, do'stona, beg'araz kulish ko'ngilxushlik maqsadida emas, qisman bo'lsa-da, idealga muvofiq jihatlarni ko'rish, uni



mukammallashtirish, nuqsonlarini bartaraf qilish, undagi umuminsoniy tuyg'ularni yuzaga chiqarish maqsadini ko'zlaydi. Shuning uchun ham ushbu asarida aks etgan yumorda nuqsonlar ustidan kulish bilan birga xayrihohlik, achinish ham mavjud. Yumorda kulgi niqobi ostida jiddiylik, kinoyada esa jiddiylik niqobi ostida kulgi yashiringan bo'ladi. Komiklik ko'rinishlaridan biri bo'lmish kinoyada muallif voqelikka kinoyaviy munosabatda bo'ladi, bu holda badiiy asar kompozitsiyasi kinoyaviy nuqtayi nazarni ifodalashga mos ravishda quriladi. Shuningdek, kinoya usuli til birliklarining nutq jarayonidagi faoliyati natijasida hosil bo'ladigan nutqiy hodisadir. Kinoyaviy munosabat ideal va voqelik o'rtasidagi keskin nomuvofiqlikni anglashdan tug'iladi. Shunga ko'ra kinoyaviylikning maqsadi faqat kulgi hosil qilishgina bo'lib qolmay, vaziyatning qanchalik jiddiyligi va hatto fojeiyligini ham ta'kidlab ko'rsatishdan iborat bo'ladi. Said Ahmad o'zining yumoristik ruhdagi asarlarida kulgi qo'zg'atuvchi vosita sifatida turli til birliklaridan foydalangan. Masalan, yozuvchi antroponimlar (nomlar va laqablar) orqali kulgi hosil qilish usulidan foydalanib, qahramonlar tabiatiga xos xususiyatlarni yoritishga erishgan.

“Kelinlar qo'zg'oloni” komediyasida kishi ismlari (antroponimlar)dan, kishi laqablaridan jozibadorlik, milliy harorat, o'zgacha ma'no hosil qilish, obraz tabiatini ochish maqsadida ustalik bilan foydalangan. Yozuvchi asar qahramonlariga ism tanlashda, uning asarda tutgan o'rniga e'tibor beradi. Masalan, Farmon bibi o'z uyida o'zi qonun chiqarib, o'zi ijrosini tekshirib oladigan qaynona. Yetti o'g'il, yetti kelin, qirq bitta nevara, o'zi bilan jami ellik olti kishi yashaydigan xonadonni “General”i ham o'zi ekanligini bilgan kishi bu ayolning ismi jismiga monandligiga qoyil qoladi. Sotti – bu har jabhada Farmon bibining o'ng qo'li bo'lgani va ayg'oqchilik mahorati borligi bois, shunday nomlangan. Umuman olganda, komediya janriga oid asarlarda bunday holat kuzatiladi, masalan, Erkin Vohidobning “Oltin devor” komediyasida Mo'min juda mo'min kishi etib tasvirlanadi; Abdulla Qahhorning “Og'riq tishlar” asarida Oqila, Xumor nomli asar qahramonlari o'ziga xos xarakterga ega. Haqiqatan ham Oqila aqlli, dono ayol bo'lib, asarning boshidan oxirigacha shu holatda ishtirok etadi. Xumor esa “xumor” so'zining lug'atlardagi “bosh og'rig'i” degan ma'nosiga monand harakat qiladi. U asar davomida Zangarov bosh og'rig'i bo'lib qoladi. O'zbek komediyalarida ism bilan bog'liq qarashlarni yana chuqur tahlil qilish mumkin.

Tilshunoslikda atoqli otlarning badiiy matnda alohida maqsadlar bilan qo'llanishi antonomatsiya deb yuritiladi. Said Ahmadning “Kelinlar qo'zg'oloni” asarida kishi ismlari, laqablari qahramonning qiziq bir sifatini alohida ta'kidlashga vosita bo'lganini kuzatish mumkin. Masalan, Farmon bibiga mahallada “Marshal” kampir, shaharda esa “General” kampir deb murojaat qilinishi yoki Farmon bibi kelinlaridan biriga, ya'ni Muhayyoga “multfilm”, “g'ildirak” deb, ovsinlari Sottiga “shpion” deb laqab qo'yishi asar qahramonlarining o'ziga xos sifatlarini ochishda qo'l keladi:


(Usta Boqi allaqanday qo'shiqni xirgoyi qilib tuflari yamayapti. Farmon bibi choynak-piyolani ko'tarib kiradi. Sal xomushroq.)

Usta Boqi. Keling, General? (unga taburetkaga qo'yib beradi) Tinchomonmisiz? Kelinlar tinchmi? Nevaralardan xabar bormi? Sal xomushroq ko'rinasiz?

Farmon: So'rama, ustam. Tushlarim alog'da-chapog'da bo'lyapti. Otaginang har kuni tushimga kiradi [Said Ahmad, 1976: 21-bet].

Komediyaning bosh qahramoni Farmon bibi haqiqatan ham, generallardek qattiqqo'l, o'ta tejamkor, talabchan ona. Uning karakteridagi o'z niyatini dag'allik va qattiqqo'llik bilan amalga oshirishi kelinlari va o'g'illarining qarshiligiga uchraydi. Farmon bibi kurash chizig'ini ochiqchasiga “hujumkorlik” ruhida olib borsa, kelin va o'g'illar niyatlarini yashirib, zimdan harakat qiladilar va iloji boricha onalarining bergan farmoniga amal qilib, uning izmidan chiqmaydilar:

To'xta: Yig'lamang, ammo-lekin bilasizmi, oyimning unvonlari qanaqa.



Nigora: Bilaman, shaharda u kishini “General” kampir deb atashar ekan.

To’xta: Yo’q, shaharda shunaqa deyishadi. Ammo mahallada u kishini

“Marshal” kampir deyishadi. Nigora: Nima, siz meni sira ham qo’rqmaydi, deb o’ylaysizmi?

Agar yetti kelin qo’lni-qo’lga berib, bir jang qilsak, Marshal kampirning boshiga qurshovda qolgan feldmarshal Paulusning kunini solishimiz hech gap emas. [Said Ahmad, 1976: 4-bet].

Komediya Farmon bibining har bir kelini o’ziga xos xarakter bo’yog’iga ega. Masalan, Sottini Farmon bibining o’ng qo’li bo’lgani uchun ovsinlari “Shpion” deb laqab qo’yishadi. Muhayyo doim pildirab yurgani uchun Farmonbibi unga “multfilm kelin” deb laqab qo’yadi: Muhayyo uyi tomon pildirab keta boshlaydi.

Farmon: Hoy, hoy, g’ildirak. Qayoqqa? (Muhayyo eshitmagan bo’lib uyga qaraydi)

Farmon: Hoy g’ildirak, hoy multfilm. Sizga aytyapman. Quloqni tom bosganmi?

Muhayyo: (noiloj to’xtaydi) Nima deysiz, oyijon?

Farmon: Bu yoqqa keling, qoqindiq. Bo’ylaringizdan o’rgilay, yaqinroq keling. Karmonni oching, girgitton. Nima bo’lsa hammasini soching, qoqindiq [Said Ahmad, 1976: 13-bet].

Said Ahmadning “Kelinlar qo’zg’oloni” komediyasida atoqli otlar bilan bir qatorda kishilarga qo’yilgan laqablar ham ko’proq kulgi hosil qiladi, chunki aniq topib qo’yilgan laqab o’sha personajning xarakteriga yoki yozuvchi bo’rttirib ko’rsatmoqchi bo’lgan biror bir xususiyatiga shunday mos tushadiki, u beixtiyor kitobxon qalbiga kulgi hadya qilmay iloji yo’q. Shu bilan birga “Kelinlar qo’zg’oloni” komediyasida meditsina kasbiga oid atamalardan foydalanib ham kulgi hosil qilinganligini kuzatish mumkin. Masalan, Mehri har bir gap orasida meditsinaga oid qarashlar yoki inson organizmi uchun kerakli vitaminlar haqida gap ochadi. Bu bilan yozuvchi uning o’ziga xos komik xarakterini namoyon etadi. Asarda Farmonbibining o’g’li Mahkam nutqi orqali ham meditsina kasbiga oid atamadan foydalanib, betakror kulgi yaratadi:

Ma’mur. Obbo siz-ey. Doim shunaqa suv qo’shilmagan gaplarni topasiz.

Mahkam. Ha, endi, akasi... Ko’pni ko’rganmiz-da. Zarur bo’lgan paytda xotiniga chap berib, aroqdan klizma qilganlarni ham ko’rganmiz [Said Ahmad, 1976: 10-bet].


Matndagi “aroqdan klizma” qilish jumlasini shu o’rinda kulgi yaratibgina qolmay, aroqning xumori tutgan ichuvchi odamlar har qanday yo’l bilan bo’lsa ham uni ichishi mumkinligi, bu og’uni ichish yaxshi emasligi yumor orqali tasvirlangan. Nutqda shunday so’zlar borki, ular o’z nomi bilan atalsa hech qanday uslubiy ma’no aks ettirmaydi. Agar ularni biror qo’shimcha nom bilan atalsa, shu nom tufayli bu so’z kulgi hosil qiladi. Said Ahmadning “Kelinlar qo’zg’oloni” komediyasida ham xuddi shu holatni uchratish mumkin, masalan, asarda oddiy daftardan ikkitasi yuritiladi. Bu daftarlarga Sotti tomonidan oila xarajatlari, ya’ni kirim-chiqim yozib boriladi:

Farmon. O’rgilay, Sottiniso, “Kirim daftari”ni yoping. Endi “Chiqim daftari”ni oching. Sotti. Mana, tayyorman, oyijon. Sleduyushiy [Said Ahmad, 1976: 14-bet].

“Kirim daftari”, “Chiqim daftari” kabi detallar asar qahramonlarining xarakterini yoritish bilan birga o’ziga xos samimiy kulgi uyg’otmay qolmaydi. Said Ahmad kulgi yaratishda xalq og’zaki ijodining janrlaridan, vositalaridan, obraz yaratish usullaridan samarali foydalandi.

O’zbek komediyalarida personajlarning tashqi ko’rinishi yoki xarakter xususiyatlari tasvirlanar ekan, ba’zan mubolag’a yordamida ham kulgi hosil qilinadi. Tilshunoslikda bu hodisani grotesk deb ataladi. Grotesk satirada haqiqiy holni fantaziya bilan qo’shib, vahimali hamda kulgili tarzda bo’rtirib tasvirlashdir [Quronov D., 2018: 16-bet]. Masalan, Said Ahmadning “Kelinlar qo’zg’oloni” komediyasida Azimsher haqida yozuvchi quyidagi mubolag’alardan foydalanib, betakror lavha yaratadi:

Farmon. Otang rahmatlik erkaklikni o’rniga qo’yardi. Rahmatlikni hamma Azimsher deb atardi. Yursa, yer titardi. Yo’talsa, daraxtdagi qushlar pir etib uchib ketardi. Aksa ursa,



osmonda mamaqaldiriq bo'lib, chaqmoq chagardi. Rahmatlik xotin kishini gapini gap demasdi. (Ko'ziga yosh olib) Shundog' odam tuproqda yotibdi [Said Ahmad, 1976: 6-bet] Xalq orasidagi afsonalar, rivoyatlar, qiziqarli voqealar, donishmand, jasur qahramonlar yozma adabiyotga o'zining ta'sirini o'tkazib keldi va uning poetikasini boyitdi, tasvirda dinamikani kuchaytirishda, qahramonlarning yorqin obrazlarini yaratishda yordam berdi. Said Ahmad hajvi xalq og'zaki ijodi ta'sirida ham boyidi. Uning asarlarida quyidagi o'ziga xos usullarni ko'rishimiz mumkin:

- 1) obrazlar ruhiy olamiga, qiyofasiga mos tashqi tasvir va harakatning kulgi bilan uyg'un berilishi;
- 2) folklor materiallarini umumlashtirgan holda yedirib yuborish usuli, ulardan bir nechtasini qo'llash;
- 3) asardagi vaziyatlarga mos holda kulgi vositalarining yaratilishi;
- 4) jonli xalq tili boyliklaridan foydalanish.

Xalq ijodidan bahramand bo'lishning bu usullari adib asarlarida kulgi yaratishning muhim omillaridan sanaladi. Said Ahmad xalq afsona va latifalaridan, naqlaridan o'z iste'dodi, tabiatiga mos bo'lganlarni tanlab oladi. Yozuvchi xalq tomonidan yaratilgan Kuyganyor haqidagi toponimik afsonani realistik tasvirni kuchaytirish, o'sha yerli xalq hayotini chuqur realistik tasvirlash, shu bilan birga joy nomining kelib chiqishini izohlash maqsadida asarga kiritadi. Kuygan yor va uning odamlari haqidagi muallif bayoni ertaklardagi tasvirlash uslubiga yaqin: "Ko'z ochirmaydigan chivinlar-u baqalarning tongotar bazmi Kuyganyorga hokim bo'ladi". Keyingi tasvirga yumor sohib yuboriladiki, uning zamirida qayg'u ham yotadi: "Bu yerning xalqi sodda do'lvor kishilar quvlik nima, aldanchilik nima bilishmasdi. Mirobodliklar shuncha azob-uqubat bilan suv chiqargan joylariga qalampir ekishadi. Boshqalar qovuntarvuz o'stirib katta daromad olganlarida, ular bodring ekib qopini 20 tiyinga ham sotolmay qaytarib oborib mollariga yedirishadi". [Сайд Аҳмад., 1976: 51-бет].

Bu satrlarni o'qigan kitobxon quvlikni bilmaydigan xalqqa nisbatan hurmati oshadi. Maqollarda fikrni lo'nda va tiniq ifodalash imkoniyatining mavjudligi nutqning ta'sirchanligini ta'minlashda juda qo'l keladi. Badiiy asarning xalqchilligini, haqqoniyligini ta'minlashda ham maqollarga murojaat qilinadi. "Yaxshining so'zi-qaymoq, Yomonning so'zi to'qmoq". "Eshikli bo'lding - beshikli bo'lding". "Chumchuq so'ysa ham qassob so'ysin". "Sulaymon o'ldi devlar qutuldi". "Hamal keldi - amal keldi" va hokazo.

Said Ahmadning "Oftobga chiqqan mushuk" hikoyasi ham qisqa hajmdagi hajviy hikoyalar sirasiga kiradi. Ushbu hikoyada ta'magirlar boshliqlarni tanqid asosiga oladi. Xodimlar rahbarning sevimli mushugini har oyda ikki marta "oftobga chiqaradilar". Mushukni oftobga chiqarish uncha qimmat emas bor yo'g'i ellik so'm. Shu yerda yozuvchi xalq orasida mashhur "Mushuk tekinga oftobga chiqmaydi" iborasidan ustalik bilan foydalanadi.

Said Ahmad hajviy hikoyalarida bu kabi so'z o'yinlaridan o'rinli foydalanadi. Adibning kichik hajmi hikoyalarida juda katta ma'no mujassam. Va xuddi shu jihati bilan adib hikoyalari o'zbek adabiyoti xazinasida o'ziga xos o'ringa ega desak mubolag'a emas.

Said Ahmad ijodi xalq jodi bilan chambarchas bog'liq ekanidan, u xalqning zukkoliogi va donoligidan keng foydalanishidan, folklor asarlariga xos san'atkorona tildan, yuksak tasviriy vositalardan, mukammal badiiy shakldan bahramand ekanligidan dalolat beradi. Shuning uchun ham uning hajviyoti ko'pgina teleminiaturalar uchun asos bo'ldi va xalq o'rtasida juda katta shuhrat qozondi. Said Ahmad eng qiyin, qayg'uli damlarda ham kulgining etagidan mahkam tutdi, hayot qiyinchiliklarini, ziddiyatlarini kulgi bilan yengdi, u yaratgan qahramonlarda ham shu fazilat mujassamlandi. Adib kulgi orqali yaxshi kayfiyat, o'z kuchiga, qudratiga, haqiqat tantanasiga ishonch ruhini baxsh etib keldi.



Adabiyotlar

1. Said Ahmad. Kelinlar qo'zg'oloni. – Toshkent, 1976. www.ziyouz.com kutubxonasi.
2. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018.
3. Саид Аҳмад. Уфқ. –Тошкент., 1976.